XALQ DEPUTATLARI QO‘SHTEPA TUMANI KENGASHINING

Q A R O R I

2024-yil 27-dekabr VII-2-015-11-157-K/24 Qo‘shtepa tumani

Qo‘shtepa tumanining 2025-yilgi mahalliy budjetini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6, 24-moddalari, Budjet kodeksining 27, 99-moddalari, “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonuniga va xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-031-11-0-K/24-son qaroriga muvofiq xalq deputatlari Qo‘shtepa tuman Kengashi

QAROR QILADI:

1. O‘zbekiston Respublikasining “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni hamda xalq deputatlari Farg‘ona viloyat Kengashining 2024-yil 27-dekabrdagi VII-3-031-11-0-K/24-son qarori (keyingi o‘rinlarda qaror deb yuritiladi) rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Mazkur qarorga muvofiq, Qo‘shtepa tumani mahalliy budjetining 2025-yilgi daromadlari **141 270,3 mln. so‘m** va xarajatlari ham **141 270,3 mln. so‘mga** miqdorida tasdiqlanganligi, shuningdek Qo‘shtepa tumani mahalliy budjetining shaxsiy g‘azna hisobvarag‘ida turgan budjet mablag‘larining yo‘l qo‘yiladigan eng kam miqdori **757,0 mln. so‘m** etib belgilanganligi inobatga olinsin.

3. “2025-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi 2024-yil 24-dekabrdagi O‘RQ-1011-son Qonunining 12-moddasiga muvofiq:

Soliqlarning quyidagi turlari tumanlar va shaharlar budjetlariga to‘liq hajmda o‘tkaziladi:

Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i;

Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i;

mol-mulkni ijaraga berishdan olinadigan yillik daromad to‘g‘risidagi deklaratsiyaga asosan jismoniy shaxslar tomonidan to‘lanadigan, shuningdek yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan to‘lanadigan jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i;

suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq;

noruda qurilish materiallar ibo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq;

aylanmadan olinadigan soliq;

yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i tushumlarining kamida 50 foizi (yirik soliq to‘lovchilar tomonidan to‘lanadigan soliqlar bundan mustasno);

davlat aktivlarini ijaraga berishdan tushumlar.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan daromad turlarini qo‘llaganda, tuman va shaharlar budjeti daromadlari xarajatlaridan ko‘p bo‘lsa yuqori turuvchi budjetlarga ajratmalarni ko‘zda tutishi mumkin.

Xalq deputatlari tumanlar va shaharlar Kengashlari tumanlar hamda shaharlarda mol-mulkni ijaraga beruvchi jismoniy shaxslar uchun belgilangan ijara to‘lovining eng kam stavkalariga:

Ommaviy dam olishga va (yoki) turizmga ixtisoslashtirilgan ayrim hududlar bo‘yicha Toshkent shahri uchun belgilangan miqdorlargacha o‘sib boruvchi Koeffitsiyentlarni joriy etishga;

ko‘chmas mulk ijara bozorida shakllangan haqiqiy ijara narxlaridan kelib chiqib 1,3 baravarigacha oshiruvchi Koeffitsiyentlarni qo‘llashga haqli.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Jo‘qorg‘i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari tuman va shaharlar budjetlariga to‘liq biriktirilgan daromadlarni Qoraqalpog‘iston Respublikasi respublika budjeti, viloyatlarning viloyat budjetlari va Toshkent shahrining shahar budjetiga yo‘naltirishi ta’qiqlanadi (bunda daromadlari xarajatlaridan yuqori bo‘lgan shahar va tumanlar mustasno).

4. Tuman mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yil uchun asosiy prognoz ko‘rsatkichlari 1-ilovaga muvofiq hamda tuman mahalliy budjetidan 2025-yilda hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. Tuman mahalliy budjeti zaxira jamg‘armasi hajmi 2025-yil uchun **1 871,0 mln. so‘m** miqdorida belgilansin.

Bunda, zaxira jamg‘armasi mablag‘larini amaldagi budjet qonunchiligiga muvofiq, budjet tizimi budjetlari shakllantirilayotganda oldindan nazarda tutib bo‘lmaydigan xarajatlarni, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik yuzaga kelgan vaziyatlarda amalga oshirilishi zarur bo‘lgan tadbirlarni moliyalashtirish uchun yo‘naltirilishi ta’minlansin.

6. Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar yer uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 3-ilovaga;

- jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 m2 uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi koeffitsiyentlar 4-ilovaga;

- noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalar 5-ilovaga;

- suv solig‘i uchun qo‘llaniladigan Koeffitsiyent va mutloq qiymat 6-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

7. Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Yunusov, tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi (I.Akbarov), tuman Soliq inspeksiyasi (I.Marayimov) bilan birgalikda 2025-yil mahalliy

budjeti uchun belgilangan ko‘rsatkichlarni o‘z vaqtida va samarali bajarilishini ta’minlash choralarini ko‘rsin.

8. Hududiy budjet mablag‘larini taqsimlovchilar budjetdan ajratilgan mablag‘lardan maqsadli va samarali foydalanish, xususan ish haqi va unga tenglashtirilgan to‘lovlar, oziq-ovqat, dori-darmon, kommunal xizmatlar va davlat dasturlari uchun belgilangan xarajatlarni birinchi navbatda to‘liq rejalashtirilishi va o‘z vaqtida to‘lanishi hamda davriy jamlanma moliyaviy hisobotlarni to‘g‘ri shakllantirilishi va o‘z vaqtida taqdim etilishini ta’minlasin.

9. Mazkur qaror tegishli tahririyatlar va ommaviy axborot vositalarida yoritilishi tavsiya etilsin hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytiga joylashtirilsin.

10. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Qo‘shtepa tuman Kengashining Mahalliy budjetni shakllantirish va ijro etish, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari doimiy komissiyasi hamda tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Yunusov zimmasiga yuklatilsin.

Kengash raisi

ABDULLAYEV
ANVARJON
ALIYEVICH

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-015-11-157-K/24 -son qaroriga
1-ilova

Qo‘shtepa tumani mahalliy budjeti daromadlarining 2025-yildagi asosiy prognoz ko‘rsatkichlari

mingso‘mda

№	Daromadlar nomi	Tasdiqlangan miqdori *(ming so‘mda)*
I	**JAMI DAROMADLAR**	**141 270 320**
II	**Mahalliy budjet daromadlari prognozi**	**141 270 320**
1	Foyda solig‘i	0
2	Aylanmadan olinadigan soliq	11 669 000
3	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	73 701 950
4	Yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i	1 441 000
5	Yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq	9 917 000
6	Jismoniy shaxslardan olinadigan mol-mulk solig‘i	10 138 000
7	Yuridik shaxslardan olinadigan yer solig‘i	9 311 000
8	Jismoniy shaxslardan olinadigan yer solig‘i	19 946 000
9	Qurilish materiallari bo‘yicha yer qa’ridan foydalanganlik uchun soliq	15 000
10	Suv resurslaridan foydalanganlik uchun soliq	3 913 920
11	Jarimalar	921 450
12	Davlat mulki bo‘yicha ijara to‘lovlari	296 000

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-015-11-157-K/24 -son qaroriga
2-ilova

Qo‘shtepa tumani mahalliy budjetidan 2025-yilgi tuman budjet mablag‘larini taqsimlovchilarga ajratiladigan xarajatlarning umumiy cheklangan miqdorlari

Tashkilotlar nomi		Tasdiqlangan miqdori *(ming so‘mda)*
	Tuman bo‘yicha jami	**141 270 320**
1.	**Ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga xarajatlar**	**55 798 932**
1.1	**Ta’lim sohasi**	**50 561 941**
	Qo‘shtepa tuman maktabgacha ta’lim tashkilotlari	30 040 436
	Qo‘shtepa tuman umumta’lim maktablari	9 429 660
	Qo‘shtepa tuman Maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi	4 754 694
	Qo‘shtepa tuman Barkamol avlod bolalar maktabi	1 741 365
	Qo‘shtepa tuman Bolalar musiqa va san’at maktabi	1 706 810
	Qo‘shtepa tuman "Mening maktabim" loyihasi	2 888 976
1.2	**Madaniyat sohasi**	**1 943 266**
	Qo‘shtepa tuman Madaniyat bo‘limi	1 445 722
	Qo‘shtepa tuman Axborot-kutubxona markazi	497 544
1.3	**Sport sohasi**	**3 149 951**
	Qo‘shtepa tuman Sport maktabi	3 149 951
1.4	Ozodlikdan mahrum etish jazosini o‘tab bo‘lgan fuqarolarga Qo‘shtepa tumanining «dastlabki ijtimoiy-moddiy yordam paketi»	23 100
1.5	Qo‘shtepa tuman Ijtimoiy ko‘nikma markazi	120 674
2.	**Iqtisodiyot xarajatlari**	**24 642 576**
2.1	Qo‘shtepa tuman Obodonlashtirish boshqarmasi	13 489 887
2.2	Qo‘shtepa tuman Ichki xo‘jalik avtomobil yo‘llarni ta’mirlash xarajatlari	4 187 853
2.3	Qo‘shtepa tuman Suv yetkazib berish xizmati davlat muassasasi	3 691 238
2.4	Qo‘shtepa tuman Fermerlar buxgalteriyasini saqlash xarajatlari	335 195
2.5	Qo‘shtepa tuman Hayvon kasalliklari tashxisi va oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi Davlat markazi	414 403
2.6	Qo‘shtepa tuman "Mahalla budjeti" jamg‘armasi	2 524 000
3.	**Davlat boshqaruv organlarini saqlash xarajatlari**	**23 104 130**
3.1	Qo‘shtepa tuman tuman hokimligi	2 581 698
3.2	Qo‘shtepa tuman Xalq qabulxonasi	193 920
3.3	Qo‘shtepa tuman Iqtisodiyot va moliya bo‘limi	2 323 739
3.4	Qo‘shtepa tuman Mahallabay ishlash va tadbirkorlikni rivojlantirish markazi	5 774 374

3.5	Qo‘shtepa tuman Oila va xotin-qizlar bo‘limi	2 313 756
3.6	Qo‘shtepa tuman Madaniyat bo‘limi (apparat)	125 556
3.7	Qo‘shtepa tuman Kambag‘allikni qisqartirish va bandlikka ko‘maklashish markazi	1 481 455
3.8	Yoshlar ishlari agentligi Qo‘shtepa tuman bo‘limi	6 260 393
3.9	Xalq deputatlari Qo‘shtepa tuman Kengashi kotibiyati	253 154
3.10	Veterinariya bo‘limi	1 796 085
4.	**Zaxira jamg‘armasi**	**1 871 022**
5.	**Fuqarolar tashabbusi jamg‘armasi**	**35 853 660**

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-015-11-157-K/24 -son qaroriga
3-ilova

Qishloq xo‘jaligi uchun mo‘ljallanmagan yerlar uchun yuridik shaxslar bo‘yicha mutloq miqdorda 1 gektar uchun belgilangan bazaviy soliq stavkasiga kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi Koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (ming so‘m)
Tuman uchun belgilangan		**0,90**	**36 630**
1	Quvurboshi MFY	0,92	33 700
2	Borot MFY	0,90	32 967
3	Mumtoz MFY	0,95	34 799
4	Namuna MFY	0,95	34 799
5	Nurafshon MFY	0,92	33 700
6	Oqtepa MFY	0,92	33 700
7	Paxtakor MFY	0,90	32 967
8	Sarmazor MFY	0,95	34 799
9	Soy bo‘yi MFY	0,93	34 066
10	Solijonobod MFY	0,90	32 967
11	Soxibkor MFY	0,92	33 700
12	O‘qchi MFY	0,95	34 799
13	Baland masjid MFY	0,92	33 700
14	O‘rta O‘qchi MFY	0,92	33 700
15	Xalqobod MFY	0,92	33 700
16	Xumdon MFY	0,93	34 066
17	Xo‘jaqishloq MFY	0,92	33 700
18	Shakar MFY	0,92	33 700
19	Shahartepa MFY	0,92	33 700
20	Shodlik MFY	0,93	34 066
21	Shomirza MFY	0,92	33 700
22	Eshonguzar MFY	0,95	34 799
23	Yangi Do‘kon MFY	0,94	34 432
24	Yangiariq MFY	0,92	33 700
25	Fayz MFY	0,92	33 700
26	Langar MFY	0,93	34 066
27	Loyson MFY	0,92	33 700
28	Ko‘prikboshi MFY	0,92	33 700

29	Bo‘ston MFY	0,90	32 967
30	Vatan MFY	0,91	33 333
31	Garmdon MFY	0,90	32 967
32	G‘ishtmon MFY	0,91	33 333
33	Dehqonobod MFY	0,92	33 700
34	Do‘rmon MFY	0,91	33 333
35	Do‘stlik MFY	0,91	33 333
36	Istiqbol MFY	0,90	32 967
37	Istiqlol MFY	0,94	34 432
38	Qo‘rg‘oncha MFY	0,91	33 333
39	Qayrag‘och MFY	0,92	33 700
40	Yo‘ldoshobod MFY	0,93	34 066
41	Karnaychi MFY	0,91	33 333
42	Katta beshkapa MFY	0,91	33 333
43	Kattaboltako‘l MFY	0,91	33 333
44	Qizilariq MFY	0,93	34 066
45	Qiyqi MFY	0,92	33 700
46	Kichik beshkapa MFY	0,92	33 700
47	Qorajiyda MFY	0,91	33 333
48	Qorakaltak MFY	0,93	34 066
49	Qoraqushchi MFY	0,92	33 700
50	Qumtepa MFY	0,94	34 432
51	Qamishtepa MFY	0,94	34 432

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-015-11-157-K/24 -son qaroriga
4-ilova

Jismoniy shaxslar bo‘yicha (dehqon xo‘jaligini yuritish uchun berilgan qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallagan yerlardan tashqari) mutloq miqdorda 1 kv.m. uchun belgilangan bazaviy soliq stavkalariga nisbatan kiritilayotgan kamaytiruvchi va oshiruvchi

Koeffitsiyentlar

T/r	Hudud nomi	Koeffitsiyent (0,7 dan 3 gacha)	Yer solig‘i stavkasi 2025-yil uchun (so‘m)
Tuman uchun belgilangan		**0,95**	**348**
1	Quvurboshi MFY	0,94	327
2	Borot MFY	0,92	320
3	Mumtoz MFY	0,94	327
4	Namuna MFY	0,93	324
5	Nurafshon MFY	0,92	320
6	Oqtepa MFY	0,92	320
7	Paxtakor MFY	0,90	313
8	Sarmazor MFY	0,94	327
9	Soy bo‘yi MFY	0,92	320
10	Solijonobod MFY	0,92	320
11	Soxibkor MFY	0,90	313
12	O‘qchi MFY	0,94	327
13	Baland masjid MFY	0,94	327
14	O‘rta O‘qchi MFY	0,94	327
15	Xalqobod MFY	0,92	320
16	Xumdon MFY	0,92	320
17	Xo‘jaqishloq MFY	0,92	320
18	Shakar MFY	0,92	320
19	Shahartepa MFY	0,92	320
20	Shodlik MFY	0,93	324
21	Shomirza MFY	0,92	320
22	Eshonguzar MFY	0,96	334
23	Yangi Do‘kon MFY	0,94	327
24	Yangiariq MFY	0,92	320
25	Fayz MFY	0,93	324
26	Langar MFY	0,93	324
27	Loyson MFY	0,90	313
28	Ko‘prikboshi MFY	0,92	320

29	Bo‘ston MFY	0,93	324
30	Vatan MFY	0,93	324
31	Garmdon MFY	0,92	320
32	G‘ishtmon MFY	0,93	324
33	Dehqonobod MFY	0,92	320
34	Do‘rmon MFY	0,92	320
35	Do‘stlik MFY	0,92	320
36	Istiqbol MFY	0,90	313
37	Istiqlol MFY	0,93	324
38	Qo‘rg‘oncha MFY	0,92	320
39	Qayrag‘och MFY	0,93	324
40	Yo‘ldoshobod MFY	0,94	327
41	Karnaychi MFY	0,92	320
42	Katta beshkapa MFY	0,90	313
43	Kattaboltako‘l MFY	0,93	324
44	Qizilariq MFY	0,94	327
45	Qiyqi MFY	0,94	327
46	Kichik beshkapa MFY	0,93	324
47	Qorajiyda MFY	0,90	313
48	Qorakaltak MFY	0,93	324
49	Qoraqushchi MFY	0,92	320
50	Qumtepa MFY	0,94	327
51	Qamishtepa MFY	0,93	324

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani
Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-015-11-157-K/24 -son qaroriga
5-ilova

Noruda qurilish materiallari uchun (sementdan tashqari) belgilangan qat’iy stavkalar

so‘mda

T/r	Hudud	Qurilish qumi, qumtoshlar, qum-shag‘alar alashmasi			G‘isht-cherepitsa xom ashyosi, lyosslar va lyossimon jinslar		
		Koeffitsiyent	Foiz	Mutloq qiymat	Koeffitsiyent	Foiz	Mutloq qiymat
1	Qo‘shtepa tumani	1,01		5 050,0	1,100	5,0	5 082,0

Xalq deputatlari Qo‘shtepa tumani Kengashining
2024-yil 27-dekabrdagi
VII-2-015-11-157-K/24 -son qaroriga
6-ilova

Suv solig‘i uchun qo‘llaniladigan Koeffitsiyent va mutloq qiymat

so‘mda

T/r	Hudud	Iqtisodiyotni barcha tarmoqlari hamda sanoat korxonalari uchun				Alkogolsiz ichimliklarni hamda pivo va vinodan tashqari alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun		Avtotrans port vositalarini yuvish uchun	
		Er usti		Er osti		Koeffitsiyent	Mutloq qiymat	Koeffitsiyent	Mutloq qiymat
		Koeffitsiyent	Mutloq qiymat	Koeffitsiyent	Mutloq qiymat				
1	Qo‘shtepa tumani	1,05	735,0	1,04	884,0	1,00	38 000,0	1,05	15 750,0